

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-154-son Farmonlari bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-154-son Farmonlari bilan belgilangan vazifalar ijrosini samarali va o‘z vaqtida ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-154-son Farmonlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son va 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari bilan belgilangan topshiriqlardan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-2 - ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan qo‘mitada ochiqlikni ta‘minlashga oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiyatlariga rioya etilishi bo‘yicha 2023-yilning 31-may – 5-iyun kunlari o‘tkazilgan o‘rganishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4. Boshliq o‘rinbosarlari (X.Norboyev, Q.Hayitov, N.Atabekov):**

chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning o‘z muddatida ijrosi ta‘minlanishi bo‘yicha muntazam nazorat olib borsin va tegishli xodimlarning mas‘uliyati hamda javobgarligini oshirsin;

mas‘ul mutaxassislar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni har chorakda tanqidiy ko‘rib chiqsin va berilgan ma‘lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligini qat‘iy nazoratga olsin.

5. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish boshqarmasi (**O.Yo‘ldoshev**), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (**S.Aktamov**), Moliya-iqtisod, buxgalteriya va marketing bo‘limi (**R.Latipov**), Moddiy-texnika bazani rivojlantirish, AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (**A.Norbekov, J.Omonov**), Axborot xizmati bo‘limi (**M.Saidova**) ochiq ma‘lumotlar portali, rasmiy veb-saytlarda ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatini shakllantirsin va belgilangan muddatlarda ma‘lumotlarni kiritib borsin.


6. Strategik rejalashtirish, axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi (**N.Tashbaev**) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmonlari bilan belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tayyorlangan ma‘lumotlarni ijro.gov.uz dasturiga kiritib borilishi va nazoratdan yechilishini ta‘minlasin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (**D.Kattabekov, E.Danayev**) har chorak yakunida ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni berishda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan mas‘ul ijrochilar to‘g‘risida birinchi rahbarga ma‘lumot kiritib borsin.

8. Mazkur Farmonlar bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash uchun mas‘ul xodimlar shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

9. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmasida qoldiraman .

Rais



B. Yusupaliyev